

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), professor.

Farmonov To‘lqin Xayitmuradovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiya Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent;

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – veterinariya fanlari doktori (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent;

Elboboyev Abdug‘ani Shuxrat o‘g‘li – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD);

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD), dotsent.

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – qishloq xo‘jaligi falsafa doktori (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN

MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 779 sahifa.
E‘lon qilishga 2026-yil
28-fevralda ruxsat berildi.






“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIIY-AMALIIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
 - 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
 - 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
 - 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
 - 06.01.06 – Sabzavotchilik
 - 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
 - 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
 - 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
 - 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
 - 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
 - 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
 - 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.
- 

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

TUYCHIYEV ALISHER JURAYEVICH

Hududiy rivojantirish, insonlar turmush tarzini yuksaltirish masalalari.....11

RABBIMOV ELBEK ABDULLOYEVICH, JUMANAZAROV RO‘ZIMUROD

Auditorlik faoliyatining zamonaviy tendensiyalari va ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....20

MUMINOVA ELNORAKHON ABDUKARIMOVNA

Improving the methodology for assessing the quality of the corporate governance of enterprises in the textile industry.....29

QO‘ZIYEVA MAFTUNA OTABEK QIZI

Kichik biznes sektorida raqamli iqtisodiyotga o‘tishning nazariy-uslubiy asoslari.....44

JUMAYEVA ZULFIYA QAYUMOVNA

O‘zbekiston Respublikasining investitsion siyosatida Buxoro viloyatining o‘rni va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.....51

JUMANOV OTABEK SATTOROVICH

Tovar raqobatbardoshlik ko‘rsatgichlari va ularning samaradorligini oshirish.....59

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O‘G‘LI

Intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining iqtisodiy mazmuni.....64

TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI

Sabzavot yetishtirishni moliyalashtirishning nazariy jihatlarini.....71

ABDUMALIKOV SHOXJAHON JALOLIDDIN O‘G‘LI

Raqamli muhitda tibbiyot tashkilotlari faoliyatini baholashda marketing kuzatuvining roli va muammolari.....80

САХОДАТХОН ИСМОИЛОВА ЭРМАТОВА

Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....89

BOZOROV ELYOR BOBOQULOVICH, LATIFJONOVA ADIBA BOBIROVNA

Turizm sohasi orqali mahalliy aholi bandligini oshirish.....96

EGAMBERDIYEV MURODULLA FARXOD O‘G‘LI

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy sug‘urta tizimidan foydalanish istiqbollari.....103

SIDDIQOV MO‘MINJON YUNUSOVICH

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari...110

BEKBUTAYEV NODIRJON FAYZULLAYEVICH

O‘zbekiston Respublikasida raqamli xizmatlar sektorida monopoliyaga qarshi baholash indikatorlarini shakllantirish va takomillashtirish.....116

ШАХОБОВ ШОХРУХ КУРБОН ЎҒЛИ

Пахта-тўқимачилик кластери ходимлари салоҳиятини ривожлантириш стратегиясига таъсир этувчи омилларни баҳолаш.....122

JUMAYEV VAHODIR RAXMATULLAYEVICH

Mintaqada xizmatlar sohasi raqobatbardoshligini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari (Buxoro viloyati misolida).....131

ESHMATOVA NODIRA RAYIMBERDI QIZI, QAHHOROVA MASHHURA BAXROM QIZI

Buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zahiralari hisobining huquqiy va me‘yoriy asoslari.....138

HUDUDIY RIVOJLANTIRISH, INSONLAR TURMUSH TARZINI YUKSALTIRISH MASALALARI

TUYCHIYEV ALISHER JURAYEVICH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

“Yangi O‘zbekiston” maktabi professori, i.f.d.

ORCID: 0000-0003-2326-7579

E-mail: tuychiyev.a@dsbauzb.onmicrosoft.com

Annotatsiya. Maqolada hududiy rivojlantirishning asosiy maqsadi sifatida insonlarning turmush tarzi va yashash sifatini yuksaltirish masalalari tahlil qilingan. Hududiy rivojlanish tizimli yondashuv asosida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ekologik jihatlarida ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda yer munosabatlarini isloh qilish, shahar yerlarini xususiylashtirish, strategik rejalashtirish va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining hududiy rivojlanishga ta‘siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari barqaror rivojlanish va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan davlat siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: hududiy rivojlantirish, yer munosabatlari, shahar yerlarini xususiylashtirish, strategik rejalashtirish, GIS, yashash sifati, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье анализируются цели и задачи территориального развития, направленные на повышение уровня и качества жизни населения. Территориальное развитие рассматривается как системный процесс, охватывающий социальные, экономические, правовые и экологические аспекты. Освещены реформы земельных отношений, приватизация городских земель и внедрение результативного управления в Республике Узбекистан. Полученные выводы подтверждают, что эффективное территориальное развитие возможно только при рациональном использовании природных ресурсов, соблюдении экологических ограничений и ориентации государственной политики на социальное благополучие человека.

Ключевые слова: территориальное развитие, земельные отношения, приватизация городских земель, стратегическое планирование, ГИС, качество жизни, устойчивое развитие.

Abstract. This paper explores the conceptual and methodological foundations of territorial development, emphasizing its primary objective of enhancing quality of life and living standards. Territorial development is treated as an integrated socio-economic system influenced by legal, institutional, and environmental factors. The study examines land reform processes in Uzbekistan, including urban land privatization, GIS-based land cadastre development, and the implementation of results-oriented strategic planning frameworks. The analysis demonstrates that effective territorial development depends on rational resource use, environmental sustainability, and human-centered public governance. The findings contribute to policy-oriented research on sustainable regional and territorial development.

Keywords: territorial development, land relations, urban land privatization, strategic planning, GIS, quality of life, sustainable development.

KIRISH

XXI asr boshlarida global iqtisodiyotda rivojlanishning yangi modeli sifatida hududiy rivojlantirish turli mamlakatlarning ilmiy va siyosiy doiralari diqqat



markaziga aylandi. Bu yoʻnalish faqat iqtisodiy oʻsishni taʼminlash emas, balki jamiyatning ijtimoiy farovonligini, barqarorligini va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bilan ham bogʻliq. Mamlakatimiz uchun hududiy rivojlantirish masalasi milliy iqtisodiyotning barqarorligi va xavfsizligi bilan bevosita bogʻliq.

Oʻzbekistonda yer iqtisodiyotning har bir sohasi uchun strategik ahamiyatga ega asosdir, u shu jumladan qishloq xoʻjaligi, sanoat, qurilish va boshqa sohalarda asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatiladi. Yir almashtirib boʻlmaydigan, eskirmaydigan va abadiy xususiyatga ega boʻlgan tabiiy resursdir.

Oʻzbekiston Respublikasida yer islohoti avvalo qishloq xoʻjaligi sohasida boshlangan boʻlib, u jamiyatda sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmagan holda izchil amalga oshirilmoqda. Soʻnggi yillarda esa shaharlar va aholi punktlaridagi yer munosabatlarini isloh qilish jarayoni ham jadallashmoqda.

Shaharlarda yerlarini xususiylashtirish amaliy jihatdan boshlanib, 2024–2025-yillarda yangi qonunlar va dasturlar orqali kengaytirilmoqda, bu esa oʻz navbatida, yerdan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan boshqa sohalarda bozor islohotlarining joriy etilishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Buning sabablari esa bir nechta. Yer kodeksi shahar yerlarida islohotlarni oʻtkazish uchun etarli huquqiy bazaga ega boʻlib, 2020–2025-yillarda bir necha marta yangilangan va shahar masalalarini ham qamrab olmoqda, ammo uni qishloq xoʻjaligi yerlariga qaratilgan qonun sifatida qisman qarash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududiy rivojlantirish va yer munosabatlarini tartibga solish masalalari jahondagi iqtisodiyot fanlari va amaliyotida keng oʻrganilgan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy sharoitda hududiy rivojlanish faqat iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlari bilan emas, balki aholining yashash sifati va institutsional oʻzgarishlar samaradorligi bilan oʻlchanmoqda.

Xususan, hududiy tashkil etish va qishloq hududlarini rivojlantirishning fazoviy jihatlari A.P.Spiridonova (2025) tomonidan tadqiq etilgan boʻlib, olimo oʻz ishida qishloq hududlarini iqtisodiy rayonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirishning yangi modellarini taklif etgan. Bu yondashuv Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan qishloq va shahar oʻrtasidagi tafovutni qisqartirish siyosati bilan hamohangdir.

Shuningdek, mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning iqtisodiy-huquqiy institutlari N.M. Kazantsev va boshqalar (2025)ning monografik tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ular hududiy boshqaruvda qonunchilik bazasi va iqtisodiy mexanizmlarning oʻzaro muvofiqligi barqaror rivojlanishning garovi ekanligini taʼkidlaydilar. Bu esa Oʻzbekistonda qabul qilingan yer va shaharsozlikka oid yangi kodekslarning ahamiyatini nazariy jihatdan asoslaydi.

Yer maʼmuriyatchiligi va kadastr tizimini raqamlashtirish masalalari boʻyicha xalqaro tajribada elektron tizimlarning barqaror yer boshqaruvidagi roli yuqori baholanadi. IEEE (Xplore raqamli kutubxonasi, bu dunyodagi eng nufuzli ilmiy bazalardan biri) bazasidagi tadqiqotlarda (2025) taʼkidlanganidek, yer

ma'muriyatchiligining elektron tizimlarini joriy etish shaffoflikni ta'minlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omilidir.

O'zbekistonlik olimlar va davlat dasturlarida esa asosiy e'tibor "natijaga yo'naltirilgan boshqaruv" va "inson qadri" tamoyillariga qaratilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda hududiy rivojlanishning texnik va iqtisodiy tomonlari keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekistondagi yangi strategik rejalashtirish tizimi (PF-201, PF-243 farmonlari) va shahar yerlarini xususiylashtirish jarayonlarining aholi turmush tarziga kompleks ta'siri yagona tizim sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu maqola ayni shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada hududiy rivojlantirishni o'rganish uchun tizimli tahlil, qiyosiy va huquqiy-normativ usullar qo'llanildi. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar tahlili va prognozlashtirish modellari ishlatildi, masalan, hududiy iqtisodiy o'sishni baholash uchun ekonometrik modellar va GIS texnologiyalari, shu jumladan milliy GIS tizimi asosida hududlarni rayonlashtirish va resurslarni taqsimlashni modellashtirish shular jumlasidandir.

Shaharlarda va boshqa aholi punktlarida asosiy e'tibor davlat uy-joy fondi hamda xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini hududlar bo'yicha tartibga solishga, korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishga qaratilgan bo'lib, endilikda yer mulkchiligi masalalari ham ushbu jarayonga qo'shilmoqda.

Aholi punktlari va shaharlar yer kadastrida esa qishloq xo'jaligi yer kadastridan farqli ravishda yangilab borilmoqda hamda milliy GIS tizimi asosida shakllantirilmoqda. Shahar yerlariga belgilangan qiymatlar bozor narxlariga yaqinlashtirilmoqda, ammo ba'zi hududlarda hali ham farq saqlanib qolmoqda. Shaharsozlik rejalashtirish hujjatlari 2021-yildagi yangi kodeks va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyalar orqali bugungi talablarga moslashtirilmoqda.

Eng asosiysi – shahar yerlarini xususiylashtirishning konsepsiyasi va dasturi shakllanib, 2025-yilgi loyihalarda 6100 gektar yerni xususiylashtirish nazarda tutilmoqda. Masalaning murakkabligi yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarining to'liq shakllanganligi bilan yumshatilmoqda, ammo ushbu masalalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarning etishmasligi hali ham qisman dolzarbdir.

Shuningdek, bugungi kunning dolzarb masalalari sifatida namoyon bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, ya'ni 2025 yil 30 oktyabrdagi PF-201-son farmoniga muvofiq "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish maqsadida, hududiy rivojlantirishda "maqsad — harakat — natija" zanjiri asosida hujjatlarni ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholashni ta'minlash zarurligi, bu tizim hududiy rivojlantirishni strategik rejalashtirish hujjatlarining iyerarxiyasi (konsepsiyalar, strategiyalar va dasturlar) orqali takomillashtirishi" aytilganligi, bunda "Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi hududiy rivojlanish masalalari bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etishi va hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, hududiy

rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar va prognozlarni xolisona tahlil qilish asosida davlat siyosati ustuvorliklari shakllantirilishi” ta’kidlanadi.

2025-yil 6-dekabrda PF-243-son farmoniga muvofiq esa “hududiy rivojlantirishda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun natijaga asoslangan boshqaruv tizimi joriy etilishi, bunda Boshqaruv samaradorligi agentligi hududiy bo‘linmalarda maqsadli ko‘rsatkichlarni shakllantirishi va monitoring qilishi, hududiy darajada vazifa va funksiyalarni 5 ta darajaga ajratish, resurslarni taqsimlash va javobgarlikni belgilash orqali samaradorlik oshirilishi, bundan tashqari, hududiy kadrlar rotatsiyasi va korrupsiyaga qarshi barqarorlik diagnostikasi hududiy loyihalarni boshqarishda shaffoflikni ta’minlashi” ning qayd etilishi ushbu sohadagi kardlarni tayorlashda o‘lkan mas’uliyat yuklaydi.

Hududiy rivojlanish murakkab va ko‘p qirrali xususiyatlarga ega. Hududiy rivojlanish jarayonini doimiy o‘zaro bog‘lanishda bo‘lgan, shuningdek, o‘zaro ta’sirlar orqali yagona yaxlitlikni shakllantiruvchi aniq tarkibiy unsurlar va komponentlarni o‘z ichiga olgan tizim deb baholash, bizning fikrimizcha, eng to‘g‘ri yondashuvdir.

Tizimning asosiy komponentlari va unsurlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mamlakat maydonida aholini joylashtirish;

mamlakat maydonini funksional rayonlashtirish;

hududlar, viloyatlar va ma’muriy tumanlar maydonlarini rivojlantirish;

aholi yashash joylari maydonlarini rivojlantirish;

o‘rmonchilik, dehqonchilik va boshqa qishloq xo‘jaligidan tashqari xo‘jalik tarmoqlari maydonlarini rivojlantirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy rivojlantirishning maqsadi insonlarning turmush tarzi va faoliyat sifatini yuqori darajada ta’minlash uchun hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydalanish darajasini uzluksiz oshirib borishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda inson hayotining sifati o‘sishi, tabiiy boyliklardan aqlli va samarali foydalanish hamda atrof-muhitga ruxsat etilgan darajadagi antropogen ta’sirlarni hisobga olish lozim.

Hududiy rivojlantirishning bosh vazifalari ularni funksional jihatdan mantiqiy tashkil qilishdan iborat bo‘lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- aholining turmush sharoitlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlagan holda aholini o‘rnash tirish tizimini rivojlantirish (aholini o‘rnash tirish tizimini takomillashtirish va yangi tizimni yaratish);

- sanoat rayonlarini rivojlantirish;

- dehqonchilik rayonlarini rivojlantirish;

- dam olish va rekreatsiya rayonlarini rivojlantirish;


- muhandislik-transport tarmoqlari va inshootlarini rivojlantirish;

- xo‘jalik-iqtisodiy faoliyatni ekologik jihatdan yaxshilash.

Mamlakat aholisining o‘sishi va demografik xususiyatlari, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hududiy rivojlanishning asosiy maqsadlari va vazifalarini belgilovchi fundamental omillardir. Har qanday mamlakatda aholining demografik o‘sishi odatda progressiv tendensiyaga ega bo‘lib, bu holat tabiiy

resurslarga (xususan, yer resurslariga) antropogen yuklamani va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kuchaytiradi.

Hududiy rivojlanish tizimi



1-rasm.Hududiy rivojlanish tizimi

Biroq, tabiiy resurslar har qanday hududda cheklangan bo'lganligi sababli, ulardan samarali va oqilona foydalanish, shu bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyati tug'iladi. Shu jarayonda atrof-muhitni muhofaza qilish talablari tabiiy resurslarga ruxsat etilgan darajada antropogen ta'sir ko'rsatish, atrof-muhit holatini monitoring qilish va uni saqlash mexanizmlarini joriy etish bilan uzviy bog'liqdir. Natijada, tabiiy resurslardan foydalanish intensivligini oshirishga bo'lgan ob'ektiv zaruriyat, bir tomondan, antropogen ta'sirning ruxsat etilgan chegaralariga rioya qilishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, jamiyat va tabiat o'rtasidagi potentsial konfliktni keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni hal etishning optimal yo'li – tabiiy resurslarni o'z-o'zidan tiklanishini ta'minlaydigan sharoitda, salbiy ekologik ta'sirlarni cheklab, foydalanish samaradorligini maksimalashtirishga yo'naltirilgan maqsadli strategiyalarni ishlab chiqishdir.

Hududiy rivojlanish omillarining dinamik va o'zgaruvchan xarakteri ushbu jarayonni optimallashtirish maqsadida uni tartibga solish zaruriyatini tug'diradi. Hududiy rivojlanishni tartibga solish amalda uning tizimli tuzilmasini shakllantirishni anglatadi, tizim parametrlarini belgilangan darajada saqlab turish esa – hududiy rivojlanishni boshqarishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Hududiy rivojlanishni

tartibga solishning quyidagi asosiy aspektlarini ajratib ko'rsatish mumkin: huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik. Shu bilan birga, hududiy rivojlanishni boshqarishning asosiy qirralariga quyidagilar kiradi: axborot ta'minoti, tashkiliy-hududiy, texnik, texnologik, prognozlashtirish, tabiiy-hududiy.

O'zbekiston qonunchiligida hududlarni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarni qamrab oladi, masalan, Prezident farmonlari (masalan, 2025-yildagi PF-186-son farmon) va qonunlarda bu munosabatlar tartibga solinadi. Yer va suv resurslaridan foydalanish arid mintaqalarda (O'zbekistonning ko'p qismi shunday) alohida muhim, chunki bu dehqonchilik va ekologik barqarorlikka ta'sir qiladi. Yer kodeksida yer munosabatlarini boshqaruvchi organlar (Vazirlar Mahkamasi va boshqalar) ko'rsatilgan, foydalanuvchilar huquqlari va javobgarlik belgilangan. Shunga o'xshash, tabiat muhofazasi qonuni iqtisodiy va tashkiliy asoslarni, shu jumladan javobgarlikni o'z ichiga oladi. Hududlarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha farmonlar (masalan, hududlarni kompleks rivojlantirish haqidagi PQ-4102-son) bu vakolatlarni yanada aniqlashtiradi.

MUHOKAMA

Hududiy rivojlanishni tartibga solishning **ijtimoiy jihat** mamlakatdagi demografik vaziyatni (hudud, viloyat, tuman va aholi maskanlari kesimida) o'rganish, aholining uy-joy bilan ta'minlanishi, bandlik darajasi, mehnat resurslarini shakllantirish va qayta tiklash, aholiga madaniy-maishiy, sog'lomlashtirish va dam olish xizmatlarini yaratish orqali aholini joylashtirish tizimini rivojlantirishni boshqarish hamda rejalashtirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda ushbu yo'nalish O'zbekistonning 2030 yilgacha mo'ljallangan strategiyasi bilan uyg'un bo'lib, aholining turmush darajasini yaxshilash, qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini isloh qilish jarayonlariga chambarchas bog'langan bo'lib, aholining yashashi va mehnat qilishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Hududiy rivojlantirishni tartibga solishning **iqtisodiy tomoni** esa shahar va qishloqlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish, joylashtirish va rivojlantirish jarayonlarida ishlab chiqarish aloqalarini hamda hududlarni kompleks rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklardan foydalanishni muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ushbu yo'nalish ko'chmas mulk bozorini tartibga solish bilan birga tabiiy resurslar bozori faoliyatini, tabiiy boyliklardan va xo'jalik obyektlaridan foydalanish hamda ularning ijarasi uchun to'lovlarni, xo'jalik subyektlari va tabiatdan foydalanuvchilar huquqlari buzilganda yetkazilgan zararni qoplashni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni asrashni rag'batlantirish masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi islohotlar doirasida bu qirra erkin iqtisodiy zonalar (FEZ) va kichik sanoat zonalarini (SIZ) yaratish, yer uchastkalarini ijaraga berishni soddalashtirish, investitsiyalarni jalb etish va xususiy sektor rivojini qo'llab-quvvatlash kabi choralar bilan boyitilgan bo'lib, bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Hududiy rivojlanishni tartibga solishning **ekologik jihat** avvalo hududning samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti manfaatlarida tabiatni asrash, atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarga ruxsat etilgan me'yorlardan ortiqcha bosimni

kamaytirish va xavfsiz tabiatdan foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Tipik, muhim va qimmatli tabiiy obyektlar hamda majmualarni, o'simlik va hayvonot dunyosining genetik zaxiralarini saqlab qolish, tabiatni muhofaza qilishning bozor mexanizmlarini joriy etish, jumladan tabiiy resurslar bozorini shakllantirish, resurslardan foydalanish uchun to'lov tizimini tatbiq etish, oqilona tabiatdan foydalanishni qo'llab-quvvatlash ushbu yo'nalishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Hozirgi ekologik islohotlar — masalan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, ekin turlarini kengaytirish, o'rmonlarni qayta tiklash va energiya tariflarini modernizatsiya qilish kabi choralar — bu qirrani yanada mustahkamlayapti va barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda harakat olib borilmoqda.

Davlat kadastrlari va maxsus monitoringlar ma'lumotlaridan foydalanuvchi axborot qirradi hududni rivojlantirishni boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hududdagi xo'jalik obyektlari va tabiiy resurslarga oid ma'lumotlarga ularning ishonchliligi, aniqligi va yangiligi bo'yicha qat'iy talablar qo'yiladi. Subyektlarning xo'jalik hamda tabiiy obyektlarga doir huquqlarini belgilovchi ro'yxatga olish, jismoniy va yuridik shaxslarga birlashtirilgan resurslarning hajmi va sifatini aks ettiruvchi hisob-kitoblar, baholash (kadastr, me'yoriy va bozor) ma'lumotlari hududning holati va rivojlanishiga doir asosiy axborotlarni tashkil qiladi. Raqamli islohotlar jarayonida ushbu qirra elektron hukumat tizimi, raqamlashtirilgan kadastrlar va monitoring platformalarini rivojlantirish orqali yanada takomillashtirilmoqda, bu esa ma'lumotlarning shaffof va tezkor bo'lishini ta'minlaydi.

Hududiy rivojlanishni boshqarishning **tashkiliy-hududiy jihati** hududlarni tashkil etish (yer tuzish), yangi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarni oqilona joylashtirish, transport tizimini yo'lga qo'yish kabi masalalar bilan bog'liq. Boshqaruvning texnik qirradi loyihalash jarayonlari, muhandislik kommunikatsiyalari, transport tarmoqlarini shakllantirish, sug'orish va kollektor tizimlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Texnologik qirra esa yer va suvdan foydalanish usullari, asosan qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida yer-suv resurslarini qayta tiklash bilan bog'liqdir. Mavjud infratuzilma islohotlari — transport va logistika tarmoqlarini yangilash, yangi sanoat zonalarini tashkil etish, suv resurslari boshqaruvini yaxshilash — bu yo'nalishlarni yanada rivojlantirmoqda.

Hududlarni rivojlantirish o'zining asosiy qoidalari, ya'ni tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. "Hudud" atamasi ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarga ega turli obyektlarni qamrab olgan murakkab tushuncha bo'lgani sababli, hududlarni rivojlantirishni tartibga solish tamoyillari ham ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, sog'lomlashtiruvchi va ekologik sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar majmuasidan birortasini alohida ajratib bo'lmaydi, chunki hududlarni rivojlantirishda jamiyat faoliyatining barcha sohalari muhim ahamiyatga ega. Faqat barcha tamoyillar uyg'un tarzda amalga oshirilganidagina hududning kompleks rivoji ta'minlanadi. "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida bu tamoyillar inson huquqlari, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurash hamda iqtisodiy erkinlik bo'yicha islohotlar

bilan yanada mustahkamlanyapti.

Hududlarni rivojlantirishni tartibga solishning maqsad, vazifa, obyekt va qirralarini belgilash ushbu tushunchani quyidagicha izohlashga imkon beradi: hududlarni rivojlantirish — bu atrof-muhitga maqbul antropogen ta'sir doirasida yerning ma'lum hududlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy va rekreatsion sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan uzluksiz obyektiv jarayondir. Bugungi sharoitda bu jarayon iqtisodiy liberallashtirish, raqamli iqtisodiyot va xalqaro integratsiya islohotlari bilan uyg'unlashib bormoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar asosida O'zbekistonda hududiy rivojlantirishning bugungi holati va istiqbollari bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

Hududiy rivojlantirish endilikda faqat ma'muriy chegaralarni boshqarish emas, balki insonlarning turmush tarzi va faoliyat sifatini yuksaltirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida shakllandi. Bu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarning o'zaro muvozanatiga asoslanadi.

O'zbekistonda joriy etilayotgan "maqsad — harakat — natija" zanjiriga asoslangan yangi boshqaruv tizimi (PF-201, PF-243) hududiy dasturlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu tizim resurslarni aniq maqsadlarga yo'naltirish va ijro intizomini mustahkamlash imkonini beradi.

Shahar yerlarini xususiylashtirish va yer munosabatlarining bozor tamoyillariga o'tkazilishi ko'chmas mulk bozorini jonlantirib, hududlarga investitsiya kiritish jozibadorligini oshirmoqda. Biroq, bu jarayonda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va aholining huquqiy savodxonligi masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Milliy GIS tizimining rivojlanishi va kadastr ma'lumotlarining raqamlashtirilishi hududiy rejalashtirishda aniqlik va shaffoflikni ta'minlamoqda. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida subyektiv omillarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Hududiy rivojlanishda tabiiy resurslarga bo'lgan antropogen yuklamani nazorat qilish va ekologik me'yorlarga rioya etish zarurati ortib bormoqda. Suv va yer resurslarining cheklanganligi sharoitida ulardan oqilona foydalanish strategik vazifa hisoblanadi.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekistonda hududiy rivojlantirishning samaradorligi davlat boshqaruvining natijadorligiga, yer islohotlarining izchilligiga va inson kapitalini rivojlantirishga bevosita bog'liqdir. Kelgusida hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda har bir hududning "o'sish nuqtalari"ni aniq belgilash va aholining bevosita ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-sonli 2025-yil 6-dekabrda qabul qilingan farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarni kompleks rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida” PF-186-sonli 2025-yil 21-oktabrdagi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer uchastkalarini xususiylashtirish va konsessiya jarayonlarini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-70-sonli 2025-yil 21-apreldagi farmoni.

4. Спиридонова, Анна Петровна Совершенствование пространственной организации сельских территорий: на материалах Чувашской Республики : диссертация кандидата экономических наук: 1.6.15. Москва 2025.

5. Казанцев Н.М., Бухвальд Е.М., Бахтизин А.Р. и др. Экономико-правовые институты регулирования регионального развития Российской Федерации: монография (под ред. Н.М. Казанцева). – Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ.

6. The Implementation an Electronic Land Administration System Towards Sustainable Land Administration: Systematic Literature Review <https://ieeexplore.ieee.org/document/10576247>

7. Маканникова, Марина Васильевна Научное обоснование водных режимов почвы и регламентов полива зерновых культур в Амурской области: диссертация доктора сельскохозяйственных наук: 4.1.5. Благовещенск 2025 <http://dlib.rsl.ru/rs101013000000/r.pdf>.

2026-yil, fevral. №2-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**